

SUITSIDAL FAOLLIK VA UNI PROGNOZLASHNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Ashurova Gulruxon Ohunovna

Qo'qon univristeti Pedagogika va psixologiya kafedrası

Dotsent vazifasini bajaruvchisi

Muxtorov Alijon Xoliq o'g'li

Qo'qon univristeti Pedagogika va psixologiya kafedrası

Psixologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur bitiruv malakaviy ishida o'smirlar orasida uchraydigan suitsidal xatti-harakatlar va ularni prognozlashga doir psixologik omillar chuqur tahlil qilindi. tadqiqotning asosiy maqsadi — suitsid xavfini aniqlashda psixologik mezonlarning rolini aniqlash, shuningdek, yoshlar orasida suitsidal holatlarning oldini olish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.

Kalit so'zlar: suitsidal xatti-harakat, o'smirlik davri, psixologik muammo, affektivlik, shaxs xususiyatlari, prognozlash, psixologik

Annotation. This graduation thesis presents an in-depth analysis of suicidal behaviors observed among adolescents and the psychological factors involved in predicting such tendencies. the main goal of the research is to identify the role of psychological indicators in assessing suicide risk and to develop practical recommendations for preventing suicidal behavior among youth.

Keywords: Suicidal behavior, adolescence, psychological problem, affectivity, personality traits, prognosis, psychological assessment

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda butun dunyo bo'ylab psixologik salomatlik masalasi jamiyat taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod orasida ruhiy tushkunlik, ijtimoiy ajralish, umidsizlik va natijada suitsidal xatti-harakatlarning ortib borayotgani xavotirli holatdir. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har yili bir milliondan ortiq inson o'z joniga qasd qiladi, ulardan ko'pchiligi 15–29 yoshlar oralig'idagi yoshlardir. Bu esa suitsid holatlarining psixologik ildizlarini aniqlash va ularni erta prognozlash muhimligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida ham mazkur muammoning oldini olishga qaratilgan qator tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi **“Yoshlar orasida jinoyatchilikni oldini olish,**

ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ruhiy holatini mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-208-son qarori¹ asosida yoshlar bilan ishlashda psixologik yondashuv kuchaytirilmoqda. Shuningdek, 2023-yil 1-iyundagi "Ruhiy salomatlikni mustahkamlash va psixologik xizmatlarni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-171-son qarorida aholining psixologik farovonligini ta'minlash, ayniqsa, yoshlar va o'quvchilar orasida ruhiy tushkunlikka tushish holatlarini barvaqt aniqlash va korreksiyalash masalalari belgilangan.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida suitsidal faollikning psixologik sabablari, xavf omillari, yoshlar ongidagi ziddiyatlar va umidsizlik hissining shakllanishiga sabab bo'luvchi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, suitsidal holatlarni erta aniqlash, ularni prognozlash va samarali psixoprofilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish bugungi davrda psixologiya fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, suitsidal holatlar ko'pincha birlamchi psixik kasalliklardan emas, balki shaxsiy hayotdagi muammolar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yetishmasligi, ruhiy zo'riqish, oilaviy nizolar, o'ziga ishonchsizlik kabi omillar ta'sirida yuzaga keladi. Ayniqsa, o'smirlik va ilk katta yosh davridagi shaxslar uchun o'zligini anglash, ijtimoiy maqom izlash, mustaqil qarorlar qabul qilish zarurati kuchaygan pallada bu holatlar keskinlashadi.

Suitsidal faollikni prognozlash esa nafaqat mavjud psixologik muammolarni aniqlashni, balki ularning kelgusi vaqt ichida chuqurlashish ehtimolini bashorat qilishni talab etadi. Psixologik diagnostika, kuzatuv, suhbat va test sinovlari asosida individual xavf omillarini aniqlash hamda mos profilaktik va korreksion choralarni belgilash bugungi psixologik xizmatlar uchun dolzarb vazifadir.

Shuni ta'kidlash lozimki, suitsidga moyillik har doim ham ochiq ko'rinishda bo'lmasligi mumkin. Ayrim holatlarda shaxs o'z niyatlarini yashirishi, tashqi tomondan faollik ko'rsatib, ichki tushkunlik holatini chetlab o'tishi mumkin. Shu boisdan, ushbu masalani chuqur ilmiy tadqiq qilish, psixologik yondashuv asosida suitsid xavfini prognozlash modelini ishlab chiqish, yoshlar, talaba-yoshlar va o'quvchilarning ruhiy holatini tizimli ravishda monitoring qilish zaruriyatga aylandi.

Mazkur tadqiqot ishida aynan ushbu muammolarning psixologik ildizlari o'rganiladi, suitsidga olib keluvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilinadi va ularni prognozlashning samarali psixologik mexanizmlari ishlab chiqishga urinish qilinadi. Tadqiqot natijalari psixoprofilaktika va psixokorreksiya yo'nalishida amaliy dasturlar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Suitsidial xulq-atvor muammosi psixologiya nuqtai nazaridan olganda yangi atama sifatida qaralmaydi. Sababi u qadimgi davrlardan beri olimlarning (Aristotel, Pifagor, Platon) muhokamasi, o'rganishi va talqini mavzusi bo'lib kelgan. O'z joniga

¹ 20.04.2022 PQ-208 yoshlar jinoyatchilik oldini olish

qasd qilish inson xatti-harakati sifatida barcha dinlarda aks ettirilgan va aksariyat hollarda qoralangan, ba'zilar bundan mustasno, masalan, Hindiston xalqlari orasida ayolning erining jasadi bilan o'zini-o'zi yoqib yuborishi, xotinning eriga sodiqligining belgisi sifatida qaralgan. Jahonga mashhur faylasuflarning ilmiy qarashlarida doimiy tarzda o'z joniga qasd qilish qoralansada, lekin, ayrim antik davr olimlari mazkur holatni oqlashga xarakat qilishadi. Qadimgi arman faylasufi **E.Daffioz** joniga qasd qilishni oqlash mumkin bo'lgan quyidagi oltita sababni tan oladi:

yashash uchun mablag'larning etishmasligi bilan;
 kuchli og'riq bilan kechadigan kasallik;
 umidsiz holat (asir, tahdid, qiynoqlar);
 chuqur qarilik;
 nopok yoki kamsituvchi harakatga majburlash;
 umumiy baxtsizlik.

Yuqoridagi ilmiy-amaliy dalillarning ilmiy tahlili shuni ko'rsatadiki, o'z joniga qasd qilish jamiyatning kuchli ta'siriga asoslangan shaxsning alohida psixologik holatining natijasidir.

“O'z joniga qasd” qilish qariyb 200 yildan buyon muhokamada bo'lib kelgan mavzu – evtanaziya **“Evtanaziya”** atamasining kelib chiqishi qadimgi yunoncha **“eu”** – yaxshi va **“Thanatos”** – o'lim so'zlaridan olingan bo'lib, ushbu atama ilk bor tarixchi Suyetonius tomonidan qo'llangan. U imperator Avgustning vafotini “o'z rafiqasi Livianing qo'lida tez va azob chekmasdan, o'zi orzu qilgan evtanaziyada jon berdi”, deya ta'riflaydi. XVII asrdan so'ng bu termin ilm-fanda faol qo'llana boshlandi.

Tibbiy izohlarga ko'ra, agar bemor surunkali kuchli og'riqlardan azob chekayotgan bo'lsa yoki qattiq shikastlangan miya jarohatini boshidan kechirgan va ortiq fikrlash – o'zini boshqarish qobiliyatiga ega bo'lmasa, yoki sun'iy moslamalar bilan yashayotgan va hushiga kelish uchun ortiq umid qolmagan bo'lsagina evtanaziya chorasi qo'llaniladi. Ya'ni qonuniy, shifokor yordami bilan bemorning hayotiga nuqta qo'yiladi. Jarayonni tashkil qilish uchun, albatta, shifokor yoki tibbiy shaxs ishtiroki kerak, aks holda bu o'z joniga qasd qilish yoki birovning hayotiga suiqasd qilish deb hisobalanishi mumkin. Shu boisdan ham ba'zi mamlakatlar evtanaziya so'zining o'rniga, “shifokor yordamida joniga qasd qilish” (assisted suicide) degan iborani qo'llashadi.²

E.Dyurkgeym ta'rifiga ko'ra, (o'z joniga qasd qilish haqidagi birinchi fundamental ish muallifi): “O'z joniga qasd qilish bu to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita jabrlanuvchining o'zi tomonidan sodir etilgan o'limi deb ataydi”. Tadqiqotchilar suitsid fenomenini ko'pincha psixologik inqiroz haqidagi tasavvurlar bilan bog'laydilar. Ushbu vaziyatda inqiroz, shaxsning hayotiy o'ta zarur ehtiyojlarini qondirish yo'lidagi to'siqlarga duch kelishi vaziyatida kelib chiqadigan emotsional

² Xabarlar.uz internet axborot manbasi

holat sifatida tushuniladi. Shunday qilib, psixologik inqiroz, tashqi sharoitlar tomonidan kelib chiqadigan xavf ta'siri ostida yuzaga keladigan (inson psixikasiga) emotsional turg'unlikning ichki buzilishi sifatida ko'riladi.

Adabiyotlarda ko'pincha suitsidal xatti-harakatlar bilan solishtiriladigan, "autatravmatizm" (o'ziga jarohat yetkazish), "autoagressiv hatti-harakat" terminlari uchraydi. Agar autoagressiv harakatning oxirgi maqsadi o'z joniga qasd qilish bo'lsa, uni suitsidal hatti-harakatlarga bog'lash mumkin. Zamonaviy, ayniqsa, xorijiy adabiyotlarda "autodestruktiv" (o'ziga zarar yetkazish bilan bog'liq xulq-atvor), "o'zini-o'zi yo'q qilish" xulq-atvori tushunchasi keng tarqalgan. Psixologik-ruhiy og'riq, og'ir inqirozli holatning umumiy belgisi hisoblanadi. Ko'ngil og'rig'iga chiday olmaslik, uni har qanday yo'l bilan to'xtatishga, unga barham berishga olib keladi, inqirozli vaziyatdagi odamga esa suitsid o'z muammolaridan qutilish va hal etish usuli sifatida tanlanadi. **E.Dyurkgeymning** (Dyurkgeym,1994) o'z joniga qasd qilishning ijtimoiy nazariyasiga muvofiq suitsidal fikrlari avvalo shaxsning ichki shaxsiy aloqalarining uzilishi, o'zi taalluqli bo'lgan ijtimoiy guruhdan begonalashuvi oqibatida paydo bo'ladi. Uning qarashlariga muvofiq, suitsidning uchta asosiy ko'rinishlari mavjud.

Birinchi turi - o'z joniga suiqaqd qilish harakatlari egoizmni bildiradi va ko'pgina holatlarda o'zini-o'zi yo'q qilish individning o'zini jamiyatdan, oilasi va do'stlaridan begonalashgan va yakkaolangan deb his qilishi bilan hisoblanadi. **Ikkinchi turi** - anomik o'z joniga suiqaqd qilish bo'lib, u shaxsning ijtimoiy guruh bilan o'zaro aloqasining buzilishiga olib keladigan jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashishdagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida yuz beradi. Ular ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar vaqtida ko'payadi, biroq, ijtimoiy yuksalishda ham saqlanib qoladi, chunki farovonlikning tezlik bilan o'sishi oldingi hayotiy sharoitlardan farq qiluvchi yangilariga moslashishni keltirib chiqaradi. O'z hayotiga suiqaqdning oxirgi,

Uchinchi turi E.Dyurkgeym altruistik deb nomlagan. Suitsidning ushbu turida odamning sotsiumning (jamiyatning) yoki guruhning obro'li shaxsi (avtoriteti) tomonidan uning egoidentligini bostirishi oqibatida u jamiyat foydasi, qandaydir ijtimoiy, diniy yoki falsafiy g'oya uchun o'zini qurbon qiladi.

Psixoanaliz asoschisi, psixiatr **Z.Freyd**³ning suitsid borasidagi tasavvurlari odamdagi mavjud **ikkita asosiy mayl** konsepsiyasiga asoslanadi:

Eros - hayot instinkti va **tanatos** - o'lim instinkti.

Inson hayoti ular o'rtasidagi jang maydoni hisoblanadi. Inson nafaqat yashashni, suyuqli bo'lishni va o'zining hayotini farzandlarida ko'rishni istaydi - shunday davrlar yoki ruxiy holatlar bo'ladiki, bunda o'lim istalgan bo'ladi. Yosh o'tishi bilan eros o'lib boradi, tanatos kuchli, qatiyatli bo'lib boradi va odamni o'limga olib borib, o'zini to'liq

³ Фрейд З. Мы и смерть // Рязанцев С. Танатология (учение о смерти). СПб.: ВосточноЕвропейский институт психоанализа, 1994. – С. 5-42.; Freud S. Mourning and melancholia // Hogarth Press, London – 1957

ro'yobga chiqaradi. Freydga muvofiq suitsid va o'zini o'ldirish tanatosning buzg'unchi ta'sirining namoyon bo'lishidir, ya'ni agressiyaning natijasidir.

Xulosa. Suitsid nafaqat shaxsiy fojia, balki jamiyat uchun ham og'ir yo'qotish bo'lib, u oilaviy muhit, atrof-muhit, ruhiy salomatlik tizimi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining zaifligini ochib beradi. Ayniqsa, o'smirlar va yoshlarda uchraydigan suitsidal fikrlar va urinishlar ruhiy sog'lomlikka e'tibor qaratish, erta diagnostika va psixologik yordam tizimini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Suitsidga qarshi kurashish faqat psixologik yondashuv emas, balki ijtimoiy, ma'naviy, pedagogik va axloqiy choralarni ham talab qiladi. Insonlarga quloq tutish, ularning hissiy ehtiyojlarini tushunish, yordamga muhtojlarni o'z vaqtida aniqlash va ularga yordam ko'rsatish suitsidning oldini olishda asosiy vositalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Амбрумова, А.Г. (2001). Самоубийство: Психология и профилактика. Москва: Медицинская психология.
2. Юнацкевич, П.И. (1999). Психодиагностика склонности к суициду у подростков. Минск: БГУ.
3. Коршунова, А.Р. (2005). Аффективно-когнитивный стиль репрезентаций отношений “Я – Другой” у лиц с суицидальными попытками. Автореферат диссертации. Москва.
4. Razuvaeva, T.N. (2015). Suicidal Risk Assessment in Adolescents: Modified Diagnostic Tools and Approaches. *Psychology and Education Journal*, 4(2), 88–94.
5. Beck, A.T., & Steer, R.A. (1991). *Manual for the Beck Depression Inventory-II*. San Antonio, TX: Psychological Corporation.